

Davletyorova Dilafruz Davronbek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi
O'zbekiston

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI V UNING ASOSIY BELGILARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada urbanizatsiya tushunchasi, uning sabablari va turlari yoritilgan. Urbanizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, shuningdek, ijobiy va salbiy jihatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, konurbanizatsiya, suburbanizatsiya, rurbanizatsiya, demografik jarayon, aglomeratsiya, mayatniksimon migratsiya, millioner shaharlar.

Davletyorova Dilafruz Davronbek qizi
student
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni
Uzbekistan

THE CONCEPT OF URBANIZATION AND ITS MAIN CHARACTERISTICS

Annotation. This article discusses the concept of urbanization, its causes and types. It also discusses the impact of urbanization on socio-economic development, as well as its positive and negative aspects.

Key words: Urbanization, suburbanization, suburbanization, rurbanization, demographic process, agglomeration, pendulum migration, millionaire cities.

Urbanizatsiya - jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. U tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Uning torroq doiradagi demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda,

mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi.

Urbanizatsiya jarayonining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- Konurbanizatsiya – shahar aglomeratsiyalari;
- Suburbanizatsiya –shahar atrofi urbanizatsiyasi;
- Rurbanizatsiya –qishloq urbanizatsiyasi;
- Shahar portlashi.
- Soxta urbanizatsiya [3].

Bu jarayonlar aholining yashash joyi, faoliyati va jamiyatsdagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, urbanizatsiya ko'rinishlari iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning yangi shakllarda namoyon bo'lishiga olib keladi.

Urbanizatsiya jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanadi va bu holat aholi yashash joylarining o'zgarishi, shahar va qishloq o'rtasidagi nisbatning siljishi orqali namoyon bo'ladi. Dastlabki bosqichda qishloq belgilari ustun bo'lgan shaharlar shakllanadi, ammo ular hali qishloqlardan rivojlanishda orqada bo'ladi. Keyingi bosqichlarda shaharlar jadal rivojlanib, qishloqlardan ustunlikni qo'lga kiritadi va qishloq areallarida markazlashuv jarayoni boshlanadi. Vaqt o'tishi bilan aholining shaharlarga ko'chishi kuchayadi, natijada yirik shaharlarda aglomeratsiyalashuv ro'y beradi va bu markazlarda aholi zichligi ortadi, qishloq hududlarida esa kamayadi. Bu o'zgarishlar yirik shaharlarning haddan tashqari zichlashuviga olib keladi, kichik shahar va qishloqlarda esa aholi kamayadi. Biroq oxirgi bosqichda aholining yirik shaharlardan chiqib, kichik shaharlar va shahar atroflariga ko'chishi kuzatiladi. Bu esa suburbanizatsiya va rurbanizatsiya jarayonlariga turtki beradi. Urbanizatsiya jarayoni aholi migratsiyasi, iqtisodiy imkoniyatlar, infratuzilma rivoji va yashash sharoitlari bilan chambarchas bog'liq. Aholi doimiy ravishda yashash uchun eng qulay, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqbul hududlarni tanlashga intiladi. Bu esa urbanizatsiyani bir yo'nalishda emas, balki murakkab va davriy jarayon sifatida namoyon qiladi. Shu

sababli urbanizatsiyani faqat shaharlarning o'sishi emas, balki aholining yashash makoni va uslubidagi o'zgarishlar tizimi sifatida qarash kerak bo'ladi.

Amerikalik shaharshunos olim J.Jibbs urbanizatsiya jarayonini o'rganish asosida uni quyidagi bosqichlardan iboratligini aniqlaydi.

1-bosqich qishloq joylarda qishloq belgilari ustun bo'lgan shaharlar vujudga kela boshlaydi, ammo ular hali qishloqlar rivojlanishidan ortda bo'ladi.

2-bosqich shaharlar rivojlanishda qishloqlardan o'zib ketadi, qishloq areallarida markazlar paydo bo'ladi.

3-bosqich qishloqlardan aholi shaharlarga ko'chib boradi, areallarning markazlarida aholi ko'payib, aglomeratsiyalashuv jarayoni ro'y bera boshlaydi, atroflarida aholi kamayadi.

4-bosqich aholi yirik shahar va aglomeratsiyalarda to'planadi, kichik shahar va qishloqlarda esa kamayadi.

5-bosqich yirik shaharlardan aholi kichik shahar va qishloqlarga, shahar atroflariga qaytadi [4].

Demak, urbanizatsiya ana shu bosqichlarni bosib o'tadi, biroq u turli hududlarda o'ziga xos tarzda turli vaqtlarda amalga oshadi. Dunyo bo'yicha urbanizatsiya darajasi XX asr boshidagi 4% dan hozirgi davrda 41% ga ortdi. Hozir dunyo mamlakatlarining 120 tasida urbanizatsiya darajasi o'rtacha dunyo ko'rsatkichlaridan yuqori.

Urbanizatsiya darajasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, infratuzilmasi va aholining yashash tarziga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir davlatda urbanizatsiya darajasi turlicha bo'lib, u aholi tarkibida shaharda yashovchilarning ulushiga qarab belgilanadi. Jahondagi mamlakatlar urbanizatsiya darajasiga ko'ra uchta asosiy guruhga ajratiladi. Bu guruhlash aholining shaharlarda yashash foiziga asoslangan bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Shahar aholisi ko'p bo'lgan davlatlarda sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari va texnologik

infratuzilma yuqori darajada rivojlangan bo‘ladi. Aksincha, urbanizatsiya darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda aholining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi va yashash sharoitlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu bois urbanizatsiya darajasi davlatning umumiy rivojlanish holatini tahlil qilishda muhim mezon hisoblanadi.

Urbanizatsiya darajasi bo‘yicha jahondagi barcha mamlakatlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 50 foizdan yuqori).
2. O‘rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20 - 50 foiz).
3. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20 foizdan kam).

Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning barcha davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko‘pchilik mamlakatlari kiradi.

O‘rtacha darajadan urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning asosiy qismi Janubiy, G‘arbiy, Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo regionlari hamda Afrikada joylashgan.

Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning ham ko‘pchiligi Afrika va Osiyoda mavjud ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Davlatlarning urbanizatsiya darajasini qiyoslaganda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming aholi kerak, O‘zbekistonda - 7 ming);
- shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;

- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;
- qishloq - shahar va mayatniksimon migratsiya;
- aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda shaharchasiga yashash tarzining mavjudligi va h.k. [4].

Urbanizatsiya darajasining ahamiyatli tomonlarini quyidagilarda yaqqol ko'rish mumkin:

1. Urbanizatsiya darajasi 10 foiz bo'lsa, bunday hudud urbanizatsiyalashmagan bo'ladi. Qishloq aholi manzilgohlari bilan shahar aholi manzilgohlari orasidagi farq deyarli bo'lmaydi. Qishloq turmush tarzi aks etadi va shahar aholi soni yoki shaharliklar hissasi juda sekinlik bilan ko'payadi;

2. Agarda urbanizatsiya darajasi 25 foizdan past bo'lsa, qishloq aholi manzilgohlari ustunligi seziladi, hudud kuchsiz urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Ammo shahar turmush tarzi aks eta boshlaydi, oqibatda, shahar aholisi tezlik bilan ko'payadi, ommaviy shahar aholi manzilgohlari paydo bo'la boshlaydi. Shahar va qishloq aholi manzilgohlari o'rtasidagi farq kattalasha boradi;

3. Urbanizatsiya darajasi 50 foizga yetsa, shahar aholisining qishloq aholisidan ustunligi seziladi, hudud o'rta urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Shahar aholi soni va o'sish sur'ati katta bo'ladi, shahar aholi manzilgohlari qishloqlardan yaqqol ajralib turadi;

4. Urbanizatsiya darajasi 75 foizni tashkil etganda, shaharlar qishloqlardan aniq farq qiladi, shahar turmush tarzi qishloq joylarga ham tarqala boshlaydi. Shahar aholisining hissasi va aholi o'sish sur'ati birdan sekinlashadi;

5. Mintaqa, mamlakat, hudud aholisida shahar aholisi hissasi 90 foiz bo'lsa, to'liq urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Shahar turmush tarzi barcha qishloq aholi manzilgohlariga tarqaladi, qishloq bilan shahar orasidagi farq yana butunlay

yo‘qoladi. Aholi soni va salmog‘i juda sekinlik bilan o‘sadi, hatto ba‘zi hollarda kamaya boradi [5].

Urbanizatsiya jarayoni har bir mamlakatda o‘ziga xos tarzda kechadi va bu O‘zbekistonga ham taalluqlidir. Mustaqillikdan so‘ng respublikada urbanizatsiya jarayonlari yangi bosqichga o‘tdi. Aholi sonining ortishi, ichki migratsiya, sanoatlashuv va infratuzilmaning rivojlanishi bilan birga, shaharlarda yashovchi aholining ulushi ham ortib bormoqda. Biroq bu jarayon bir xil sur‘atda kechmayapti, ayrim hududlarda urbanizatsiya faolligi yuqori bo‘lsa, boshqalarida sustroq bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, urbanizatsiyaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham ahamiyati ortib bormoqda. Shu sababli O‘zbekiston tajribasida urbanizatsiya masalasini chuqur o‘rganish va baholash dolzarb hisoblanadi.

Shahar aholisi sonining yillik o‘zgarishi va ulushining ortib borishi urbanizatsiya jarayonining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Quyida keltirilgan ma’lumotlar O‘zbekistonda 2015-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda shahar aholisi soni va uning umumiy aholiga nisbatan ulushi qanday o‘zgarganini yaqqol ifodalaydi. Bu raqamlar mamlakatda shaharlar soni, aholi zichligi va infratuzilmaning kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda shahar aholisining yillar bo‘yicha o‘sishi

T/r	Yillar	Shahar aholisi soni (ming kishi)	Shahar aholisi ulushi
1.	2015-yil	15 746,8	50,8
2.	2016-yil	15 964,0	50,6
3.	2017-yil	16 238,5	50,6
4.	2018-yil	16 533,9	50,6
5.	2019-yil	16 805,0	50,5
6.	2020-yil	17 118,4	50,5
7.	2021-yil	17 487,5	50,6
8.	2022-yil	17 918,3	50,8

9.	2023-yil	18 335,7	51
10.	2024-yil	18 768,5	51
11.	2025-yil	19 135,8	51

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari izchil davom etmoqda. Bu esa shahar aholisi sonining ortib borishi orqali yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2015-yildan boshlab O‘zbekistonda shahar aholisi soni izchil o‘sib bormoqda. Agar 2015-yilda shahar aholisi 15 million 746,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 19 million 135,8 ming kishiga yetgan. Bu esa so‘nggi o‘n yil davomida shahar aholisi salkam 3,4 million kishiga ko‘payganini anglatadi. Shuningdek, shahar aholisi ulushi ham 50,5 foiz atrofida saqlanib, 2023-yildan boshlab 51 foizgacha yetgani urbanizatsiya jarayonining faollashganidan dalolat beradi. Bunday o‘sish mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmalar rivojlanayotganini, aholining urban hayot tarziga qiziqishi ortayotganini hamda shahar va tumanlarda yaratilayotgan qulay yashash sharoitlari samarasini aks ettiradi. Bu esa shaharsozlik siyosatining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini va urbanizatsiyaning istiqbolda ham davom etishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya bugungi davrning muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni bo‘lib, u mamlakatning taraqqiyot darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bu jarayon orqali aholining yashash sharoiti, infratuzilma, xizmat ko‘rsatish sohasi va bandlik imkoniyatlari yaxshilanadi. O‘zbekistonda ham urbanizatsiyani bosqichma-bosqich, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Biroq urbanizatsiya faqat shaharlarning soni emas, balki yashash tarzining o‘zgarishi sifatida qaralishi kerak. Uni to‘g‘ri boshqarish orqali barqaror va qulay hayot uchun poydevor yaratiladi. Shu bois urbanizatsiya jarayoni har tomonlama chuqur tahlil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
2. Bahritdinov B.A., Zokirova S.A., Abdurahimova G.A., A‘zam S.E. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. – T.: 2008.
3. Soliyev A.S., Komilova N.K., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (Darslik). – T.: Universitet, 2019.
4. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. – T.: 2018.
5. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi (Darslik). – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.